

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2025-yil 3-son

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-sentabrda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 23,5
Adadi: 100. Buyurtma: № 174.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.09.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 23,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 174.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонов – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор философии по юридическим наукам, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.09.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 23,5.

Units: 100. Order: № 174.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Mukhamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 11 **SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi asosida jinoyat qonunini takomillashtirish bo'yicha ayrim mulohazalar
- 19 **NARIMANOV BEKZOD ABDOVALIYEVICH**
Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish: nazariy-huquqiy jihatlar va modellar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 26 **GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Kiber huquqning nazariy asoslari: huquqiy tartibga solishning konseptual modeli
- 40 **MAMANAZAROV SARDOR SHUXRATOVICH**
Zamonaviy biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari
- 52 **SAMANDAROVA FERUZA BAXROMJON QIZI**
Davlat xaridlari bitimlarini maxsus shartnoma turi sifatida baholash
- 62 **ABDOVALIYEV BAHODIR ABDULXAYEVICH**
O'zbekiston Respublikasida aqlli shaharlar rivojlanishining huquqiy asoslarini tahlil qilish: hozirgi holat va takomillashtirish istiqbollari
- 74 **MAMADALIYEV AVVOLBEK ZIYOITDINOVICH**
Huquqni suiiste'mol qilish fenomeni to'g'risidagi qarashlar genezisi
- 84 **RAHMATOV AZIZBEK ISKANDAR O'G'LI**
Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari va ularni takomillashtirish istiqbollari
- 97 **RODIONOV ANDREY ALEKSANDROVICH**
Blokcheyn texnologiyalarida ma'lumotlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning konvergensiya va divergensiya: Yevropa Ittifoqi "Ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni tajribasi hamda O'zbekiston uchun istiqbollar
- 105 **SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**
Mas'uliyati cheklangan jamiyatda ulushni sotish munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi: nazariya va amaliyot

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 117 **SULTONOVA SEVINCH BEKMUROD QIZI, MIRZAYEV ISLOMJOX XUSHNAZAR O'G'LI**
Arizani ko'rmasdan qoldirish va xususiy shikoyat qilish huquqi: amaliyot, muammo va takliflar

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 124 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida O'zbekiston milliy standartlashtirish tizimini rivojlantirish istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 133 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirgan shaxsga jazo tayinlashda jabrlanuvchi xulq-atvorining e'tiborga olinishi
- 143 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashning ijtimoiy zaruriyati

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 153 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM QIZI**
Xalqaro hamkorlikda ekstraditsiya tushunchasi, ahamiyati va roli

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

168 **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**

Tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning xalqaro-huquqiy va kontseptual asoslari

177 **RASBERGENOVA SARBINAZ ALISHEROVNA**

Qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash sohasida mintaqaviy shartnomaviy-huquqiy mexanizmlar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

187 **MIRZAYEVA MOHINA SROJIDDINOVA**

O'zbekistonda yo'l-transport infratuzilmasi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 11 **САФАРОВ ДЖАХОНГИР ИСМАИЛОВИЧ**
Некоторые суждения по совершенствованию уголовного законодательства на основе новой редакции Конституции Республики Узбекистан
- 19 **НАРИМАНОВ БЕКЗОД АБДУВАЛИЕВИЧ**
Правовое регулирование деятельности негосударственных некоммерческих организаций: теоретико-правовые аспекты и модели

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 26 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**
Теоретические основы киберправа: концептуальная модель правового регулирования
- 40 **МАМАНАЗАРОВ САРДОР ШУХРАТОВИЧ**
Особенности гражданско-правовых отношений в сфере современных биотехнологий
- 52 **САМАНДАРОВА ФЕРУЗА БАХРОМЖОН КИЗИ**
Оценка договоров государственных закупок как особого вида договора
- 62 **АБДУВАЛИЕВ БАХОДИР АБДУЛХАЕВИЧ**
Анализ правовых основ развития умных городов в Республике Узбекистан: современное состояние и перспективы совершенствования
- 74 **МАМАДАЛИЕВ АВВОЛБЕК ЗИЁИТДИНОВИЧ**
Генезис взглядов на феномен злоупотребления правом
- 84 **РАХМАТОВ АЗИЗБЕК ИСКАНДАР УГЛИ**
Механизмы финансирования предпринимательской деятельности и перспективы их совершенствования
- 97 **РОДИОНОВ АНДРЕЙ АЛЕКСАНДРОВИЧ**
Конвергенция и дивергенция гражданско-правового регулирования данных в блокчейн-технологиях: опыт закона ЕС о данных и перспективы для Узбекистана
- 105 **САИДОВ МАКСУДБЕК НОРБОЕВИЧ**
Правовое регулирование отношений по продаже долей в обществе с ограниченной ответственностью: теория и практика

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 117 **СУЛТОНОВА СЕВИНЧ БЕКМУРОД КИЗИ, МИРЗАЕВ ИСЛОМЖОН ХУШНАЗАР УГЛИ**
Оставление заявления без рассмотрения и право на частную жалобу: практика, проблемы и предложения

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 124 **РАЖАБОВ НАРИМАН ШАРИФБАЕВИЧ**
Перспективы развития национальной системы стандартизации Узбекистана в сфере охраны окружающей среды

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 133 **НИЁЗОВА САЛОМАТ САПАРОВНА**
Учёт поведения потерпевшего при назначении наказания лицу за совершённое в состоянии сильного душевного волнения умышленное убийство
- 143 **ЧОРИЕВ АНВАР КУЗИЕВИЧ**
Социальная необходимость установления уголовной ответственности за нарушение законодательства о персональных данных

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

153 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАИМ КИЗИ**

Понятие, значение и роль экстрадиции в международном сотрудничестве

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

168 **ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМ КИЗИ**

Международно-правовые и концептуальные основы обеспечения безопасности медицинской информации

177 **РАСБЕРГЕНОВА САРБИНАЗ АЛИШЕРОВНА**

Региональные договорно-правовые механизмы в сфере обеспечения права на благоприятную окружающую среду

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

187 **МИРЗАЕВА МОХИНА СРОЖИДДИНОВНА**

Коррупционные риски в сфере дорожно-транспортной инфраструктуры в Узбекистане и механизмы их преодоления

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 11 **SAFAROV DJAKHONGIR ISMOILOVICH**
Some considerations on improving the criminal legislation based on the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan
- 19 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIEVICH**
Legal regulation of non-governmental non-profit organizations: theoretical and legal aspects and models

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 26 **SAID GULYAMOV SAIDAKHRAROVICH**
Theoretical foundations of cyberlaw: a conceptual model for legal regulation
- 40 **MAMANAZAROV SARDOR SHUKHRATOVICH**
Peculiarities of civil-legal relations in the field of modern biotechnology
- 52 **SAMANDAROVA FERUZA BAKHROMJON KIZI**
Evaluation of public procurement transactions as a special type of contract
- 62 **ABDUVALIEV BAHODIR ABDULKHAYEVICH**
Analysis of the legal framework for the development of smart cities in the Republic of Uzbekistan: current state and prospects for improvement
- 74 **MAMADALIEV AVVOLBEK ZIYOITDINOVICH**
Genesis of views on the phenomenon of abuse of law
- 84 **RAKHMATOV AZIZBEK ISKANDAR UGLI**
Mechanisms for financing entrepreneurial activities and prospects for their improvement
- 97 **RODIONOV ANDREY ALEKSANDROVICH**
Convergence and divergence of civil legal regulation of data in blockchain technologies: EU data act experience and prospects for Uzbekistan
- 105 **SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**
Legal regulation of relations on sale of shares in a limited liability company: theory and practice

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 117 **SULTONOVA SEVINCH BEKMUROD KIZI, MIRZAEV ISLOMJON KHUSHNAZAR UGLI**
Dismissal of an application without consideration and the right to a private complaint: practice, problems and proposals

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 124 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**
Prospects for the development of the national standardization system of Uzbekistan in the field of environmental protection

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 133 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Consideration of the victim's behavior when sentencing a person who commits intentional homicide in a state of intense emotional excitement
- 143 **CHORIEV ANVAR KUZIEVICH**
Social necessity of establishing criminal liability for violation of legislation on personal data

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 153 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM KIZI**
The concept, significance, and role of extradition in international cooperation

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

168 **YUSUPOVA FARINGIZ UKTAM KIZI**

International legal and conceptual foundations for ensuring the security of medical data

177 **RASBERGENOVA SARBINAZ ALISHEROVNA**

Regional contract-legal mechanisms in the sphere of ensuring the right to a favorable environment

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

187 **MIRZAEVA MOHINA SROJIDDINOVA**

Corruption risks in the field of road transport infrastructure in Uzbekistan and mechanisms for their elimination

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.08.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 09.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.3./MTHN1308

UDC: 346.542(045)(575.1)

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Rahmatov Azizbek Iskandar o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi bo'lim boshlig'i
ORCID: 0000-0001-8590-4161
e-mail: rahmatov-azizbek95@mail.ru

Annotatsiya. Bugun tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va tadbirkorlarning o'z faoliyatlarini boshlash jarayonida ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Faoliyatini qisqa muddatda tugatmaslik hamda turli byurokratik to'siqlarga uchramasligi uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish orqali bir qancha soliq imtiyozlari qo'llanib, litsenziya va ruxsatnomalarni olish jarayonlari soddalashtirilmoqda. Qolaversa, turli davlat idoralari tomonidan talab etiladigan bir qancha hujjat va ma'lumotlarni so'rab olish bekor qilinib, tegishli axborot tizimlari orqali zarur axborotni vakolatli organlar orqali bevosita olish tartiblari belgilandi. Har bir tadbirkor uchun o'z faoliyatini boshlashda zarur bo'lgan asosiy manba mablag' hisoblanadi. Ushbu mablag' bilan tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat yuritishi uchun joyga egalik qiladi. Qolaversa, faoliyatni boshlash uchun asosiy vositalarni xarid qilib, xodimlarning ish haqini to'laydi. Shu sababli bugungi kunda faoliyatni moliyalashtirish tartiblarini osonlashtirish, ularning turlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda har bir moliyalash usulining o'ziga xos afzallik va noqulay tomonlari mavjud. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lsa-da, ularning turlari va foydalanish tartibi turli xilligi va murakkabligi sohaga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishni, shuningdek, qo'shimcha moliyalashtirish mexanizmlarini qonunchilikka joriy etishni talab qiladi. Mazkur maqolada moliyalashning ahamiyati, uning turlari hamda o'ziga xos jihatlari, faoliyatni moliyalash bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi turli olimlarning izlanishlari hamda O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi asosida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, moliyalash, kredit, subsidiya, faktoring, venchur kapital, kraudfanding, shaxsiy mablag'lar

МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Рахматов Азизбек Искандар угли,
самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета,
начальник отдела Министерства юстиции
Республики Узбекистан

Аннотация. В настоящее время особое внимание уделяется развитию предпринимательской сферы и поддержке предпринимателей на этапе начала их деятельности. С целью недопущения преждевременного прекращения деятельности и предотвращения различных бюрократических препятствий совершенствуется законодательная база, в рамках которой предоставляется ряд налоговых льгот, упрощаются процедуры получения лицензий и разрешений. Кроме того, отменено требование о предоставлении ряда документов и сведений, запрашиваемых различными государственными органами, и установлены правила их получения уполномоченными органами напрямую через соответствующие информационные системы. Для каждого предпринимателя основным источником, необходимым для начала деятельности, являются финансовые средства. Именно за счёт этих средств предприниматель проходит государственную регистрацию, получает помещение для ведения деятельности, приобретает основные средства и выплачивает заработную плату работникам. В связи с этим на сегодняшний день важное значение имеет упрощение процедур финансирования, а также расширение их видов. Следует отметить, что у каждого способа финансирования существуют как преимущества, так и недостатки. Несмотря на то, что законодательные акты, регулирующие отношения, связанные с финансированием предпринимательской деятельности, уже приняты, многообразие видов и сложность порядка их применения обуславливают необходимость совершенствования соответствующих нормативных актов, а также внедрения дополнительных механизмов финансирования в законодательство. В данной статье на основе исследований различных учёных и национального законодательства Республики Узбекистан в научно-теоретическом и научно-практическом аспектах проанализированы значение финансирования, его виды и особенности, а также правовое регулирование отношений, связанных с финансированием предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: предпринимательство, финансирование, кредит, субсидия, факторинг, венчурный капитал, краудфандинг, собственные средства

MECHANISMS FOR FINANCING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES AND PROSPECTS FOR THEIR IMPROVEMENT

Rahmatov Azizbek Iskandar ugli,

Independent researcher at Tashkent State University of Law,
Head of Department of the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. Today, special attention is paid to the development of the entrepreneurial sphere and supporting entrepreneurs in the process of starting their activities. In order to avoid the short-term termination of activities and avoid various bureaucratic obstacles, a number of tax benefits are being applied, and the process of obtaining licenses and permits is being simplified by improving the legislative framework. In addition, the request for a number of documents and information required by various government agencies has been canceled, and the procedure for obtaining the necessary information directly from authorized bodies through relevant information systems has been established. The main source necessary for every entrepreneur to start their business is funds. With these funds, the entrepreneur undergoes state registration and acquires a place for business. Moreover, they purchase fixed assets to start operations and pay employees' salaries. Therefore, today it is important to simplify the procedures for financing activities and expand their types. Today, each financing method has its own advantages and disadvantages. Despite the fact that legislative acts regulating relations related to the financing of entrepreneurial activity have been adopted, the diversity and complexity of their types and procedures of use require improvement of legislative acts in this area, as well as the introduction of additional financing mechanisms into legislation. In this article, the significance of financing, its types and features, and the legal regulation of relations related to the financing of activities are analyzed from

a scientific-theoretical and scientific-practical point of view based on the research of various scientists and the national legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: *entrepreneurship, financing, credit, subsidy, factoring, venture capital, crowdfunding, personal funds*

Kirish

Tadbirkorlik subyektlari har qanday iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy qilish, raqobat muhitini kuchaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Shu bois respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga qo'shimcha qulaylik va yengilliklar yaratish bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, bugunga qadar tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularga soliq imtiyozlarini taqdim etish, imtiyozli bank kreditlari va davlat ko'magini ajratish, litsenziya va ruxsatnomalar olish tartibini soddalashtirishga oid bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Amalga oshirilgan amaliy choralar natijasida so'nggi 3 yil ichida 160 turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 120 turdagi ma'lumot va hujjatlarni fuqarolar va tadbirkorlik subyektlaridan talab qilish bekor qilindi.

Tadbirkorlik subyektlariga barcha litsenziya va ruxsatnomalarni yagona tizim orqali berish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadida "Litsenziya" axborot tizimi yaratildi, natijada ushbu tizim orqali 140 dan ortiq turdagi davlat xizmatlarini olish imkoniyati mavjud. Tadbirkorlik faoliyatini boshlashda uni mablag' bilan ta'minlash, ya'ni moliyalashtirish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy manbalarga ega bo'lish tadbirkorlarga o'z faoliyatini rejalashtirish va barqaror o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy tartibga solinishi investitsiya muhitining shakllanishi, investorlar va qarz beruvchilar huquqlarining himoyasi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir.

Alan Moris moliyalashtirishning huquqiy asoslarini tahlil qilar ekan, aniq va tushunarli qonunchilikning mavjudligi kredit shartnomalarining bajarilishini ta'minlashini, investorlar uchun xavflarni kamaytirishini va shu orqali uzoq muddatli sarmoyalarni jalb qilishga yordam berishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, busiz bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonch paydo bo'lmaydi [1]. Haver Smit moliyaviy huquq bo'yicha ekspert sifatida, moliyalashtirish manbalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning zaifligi korrupsiyaga yo'l ochishi va moliyaviy bozorda tartibsizlikka olib kelishi mumkinligini aytgan. Uning ta'kidlashicha, huquqiy me'yorlar moliyalashtirish jarayonlarini shaffof va adolatli qilib, iqtisodiy jinoyatlarning oldini oladi [2]. Piter Druker menejment bo'yicha olim bo'lsa-da, tadbirkorlik va moliyalashtirish haqidagi asarlarida huquqiy muhitning ahamiyatiga ham to'xtaladi. Uning fikricha, samarali moliyalashtirish tizimi vazifalaridan biri – kapitalning eng samarali sarflanadigan loyihalarga yo'naltirilishini ta'minlash. Bu esa kuchli huquqiy himoya mexanizmlari mavjud bo'lgandagina imkonlidir [3].

Tadbirkorlik faoliyatini boshlashda ro'yxatdan o'tishdan tortib xodimlarning oylik ish haqini to'lashgacha bo'lgan davrda dastlabki mablag'ga ega bo'lishi kelgusida faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishiga yordam beradi. Mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lsa-da, moliyalash usullari, turlari va tartibi turfa xilligi hamda murakkabligi sohaga oid hujjatlarni takomillashtirishni va ularni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqib, muqobil moliyalash usullarini amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

Material va metodlar

Mazkur maqola tadqiqot sifatida turli manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, amaliyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, tadbirkorlik sohasiga oid qonunchilik hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan hamda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning turli mexanizmlari taqqoslangan, ularning ijobiy va tadbirkor uchun noqulaylik tug'dirishi mumkin bo'lgan jihatlari solishtirilgan. Shuningdek, moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini amaliyotga keng joriy etish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilgan. Bu xulosalarning amalga oshishi tadbirkorlarning o'z faoliyatini amalga oshirishda mustahkam moliyaviy-huquqiy yechimlarning vujudga kelishi, moliyaviy institutlar va investorlar o'rtasida o'ziga xos raqobat shakllanishiga, shuningdek, investorlarning huquqlari kafolatlanib, ular hamda tadbirkorlar o'rtasida ishonch muhitini yaratish kabi maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish manbalarini ikkita katta guruhga ajratish mumkin: ichki va tashqi manbalar [4].

Ichki moliyalashtirish manbalari biznesning o'zida, ya'ni ichki rezervlar hisobidan shakllanadigan mablag'lardir. Ichki moliyalashtirish manbalari sifatida foyda, amortizatsiya ajratmalari va debitorlik qarzlari keltiriladi.

Ayrim korxonalar faoliyatidan olingan sof foydaning bir qismini qayta investitsiya qilsa, ayrimlari asosiy vositalar (uskuna, bino va h.k.) eskirishi uchun hisoblanadigan mablag'larni yangi aktivlar sotib olish yoki mavjudlarini yangilash uchun ishlatishi mumkin. Shuningdek, korxonaga boshqa subyektlar tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar ham korxona faoliyatini kengaytirishga yordam berishi mumkin.

Tashqi moliyalashtirish manbalari kompaniya tashqarisidan jalb qilinadigan mablag'lar bo'lib, ko'pincha qarz yoki kapital shaklida bo'ladi. Bularga bank kreditlari, lizing, mikroqarzlarni, venchur fondlari va turli investorlardan olingan mablag'lar kiradi.

Shuningdek, tadbirkorlik sohasiga kirib kelish davri va qo'llanish doirasiga qarab moliyalash usullarini an'anaviy va noan'anaviy turlarga bo'lishimiz mumkin.

Ko'pgina subyektlar tomonidan amaliyotda qo'llanayotgan bank kreditlari, lizing, faktoring va davlat jamg'armalaridan olingan ko'makni an'anaviy moliyalash turlariga kiritib, qonunchiligimizga endi kirib kelayotgan venchur fondlari, kraudfanding, biznes farishtalar, mezanin moliyalashtirish hamda konvertatsiya qilinadigan notalar noan'anaviy usullar sirasiga kiradi.

Har bir moliyalash usulining huquqiy tartibga solish mexanizmlari bir-biridan farq qiladi hamda o'ziga xos afzallik va noqulaylik taraflari mavjud. Bank krediti keng tarqalgan an'anaviy moliyalashtirish usuli bo'lib, uning huquqiy asoslari kredit shartnomalari va garov qonunchiligi bilan belgilanadi. Uning mohiyati bank va tadbirkor o'rtasidagi qarz munosabatlariga asoslanadi, bunda bank ma'lum muddatga va foiz evaziga pul mablag'larini beradi.

Mamlakatimizda kreditlash sohasini huquqiy tartibga solishga qaratilgan bir qancha qonun hujjatlari mavjud. Xususan, Fuqarolik kodeksi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonunlarda kreditlashning umumiy qoidalari aks etgan. Qonunchilikka asosan, respublikamizda tadbirkorlik subyektlarini kredit bilan ta'minlovchi tuzilmalarni 2 turga bo'lishimiz mumkin: banklar va mikromoliya tashkilotlari. Fuqarolik kodeksining 744-moddasiga asosan, kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va

shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Kreditlash jarayonida eng muhim huquqiy hujjat – kredit shartnomasi. Bu hujjatda qarz miqdori, foiz stavkasi, to'lov muddatlari, jarimalar va garovga oid barcha shartlar aniq ko'rsatilishi kerak. Bu qarz oluvchining huquqlarini himoya qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga asosan, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida milliy valyutada bank kreditlarining o'rtacha foizi 23,1 foizni tashkil etmoqda. Joriy yilning dastlabki 6 oyi davomida jami qiymati 63 583 mlrd so'mlik 373 678 ta kredit ajratilgan. Bu, o'z navbatida, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126 335 taga yoki 14 801 mlrd so'mga ko'p [5]. Mazkur raqamlardan ko'rish mumkinki, foizlar yuqori va rasmiylashtirish tartibi murakkab bo'lmasin bank kreditlariga bo'lgan talab yuqoriligicha qolmoqda.

Banklar kredit berishdan oldin tadbirkorning kredit tarixi, moliyaviy holati va garov ta'minoti sinchkovlik bilan o'rganiladi. Qolaversa, aksar kreditlar, ayniqsa, yirik miqdordagilari garov ta'minotini talab qiladi. Agar biznesda garovga qo'yish uchun yetarli aktivlar bo'lmasa, kredit olish imkoniyati keskin kamayadi. Kredit olish bilan tadbirkor zimmasiga qat'iy to'lov majburiyatini oladi. Agar biznes kutilganidek daromad keltirmasa, kredit to'lovlari moliyaviy qiyinchiliklarni olib kelishi mumkin [6]. Bank kreditlarining shartlari odatda qat'iy bo'ladi. Biznesda kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda, kredit shartlarini o'zgartirish yoki to'lovlarni kechiktirish juda qiyin. Bu, ayniqsa, beqaror bozor sharoitida jiddiy muammo tug'diradi [7].

Professor Jozef Stiglisning fikricha, bank kreditlarini tartibga solishdagi eng katta muammolardan biri axborot asimmetriyasidir. Ya'ni bank qarz oluvchining haqiqiy moliyaviy holati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmazligi mumkin. Shu sababli huquqiy mexanizmlar, masalan, garov huquqini mus-

tahkamlash va kredit axboroti almashinuvi tizimini rivojlantirish muhimdir [8].

Xorijiy davlatlarda ham bank krediti huquqiy jihatdan qat'iy tartibga solinadi, lekin turlicha yondashuvlar mavjud. AQShda bank kreditini tartibga soluvchi markazlashgan qonunchilik mavjud emas, aksincha, turli federal va shtat qonunlari majmuasi amal qiladi. Masalan, "Truth in Lending Act" (TILA) hujjati iste'molchilarning kredit huquqlarini himoya qiladi. Unda kreditga oid shartnomalarda foiz stavkalari va boshqa xarajatlar aniq ko'rsatilishi majburiy qilib belgilangan. Germaniyada "Bürgerliches Gesetzbuch" (BGB), ya'ni Fuqarolik kodeksi kredit shartnomalarining asosiy huquqiy bazasi hisoblanadi. Ushbu kodeksda qarz va kredit munosabatlarning barcha jihatlarini atroflicha yoritilgan [9].

Lizing munosabatlari asosan Fuqarolik kodeksi hamda "Lizing to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Qonunning 2-moddasiga asosan, lizing moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Ushbu normadan ko'rinadiki, lizing beruvchi hamda lizing oluvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar lizing shartnomasi bilan tartibga solinadi. Milliy qonunchiligimizda lizing obyektini va subyektlari doirasi, taraflarning huquq va majburiyatlari aniq belgilangan bo'lib, ushbu normalar Fuqarolik kodeksining 587–599-moddalarida aks etgan. Lizingning asosiy huquqiy afzalligi obyektga mulk huquqining lizing beruvchida qolishi. Bu holat lizing shartnomasini bank kreditiga nisbatan ancha ishonchli va kam xatarli qiladi, chunki qarzidor majburiyatlarini bajarmasa, lizing beruvchi obyektini qaytarib olish huquqiga ega [10].

Xorijiy adabiyotlarda lizing haqidagi asosiy g'oyalardan biri shuki, u mulkka egalik qilishdan ko'ra undan foydalanishga urg'u beradi [11]. Shuni ham inobatga olish lozimki, lizing shartnomasining umumiy to'lov miqdori odatda o'sha mulkni to'liq sotib olish narxidan yuqori bo'ladi. Bu foizlar, komissiya va lizing kompaniyasining foydasi hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga, lizing shartnomalari mulkdan foydalanish bo'yicha ko'plab cheklovlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, mulkni ijaraga berish yoki unda o'zgarishlar qilish uchun lizing beruvchining roziligi talab qilinishi mumkin [12].

O.T. Hazratqulov tomonidan lizing munosabatlarining huquqiy ta'minlanganlik darajasiga ko'ra mamlakatlar uch asosiy guruhga ajratilgan: lizing shartnomalarini muvofiqlashtiruvchi maxsus qonunlarga ega bo'lgan mamlakatlar (O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Fransiya, Belgiya, Italiya va boshqa davlatlar); maxsus qonunosti hujjatlariga ega mamlakatlar (Angliya, Avstraliya, Yangi Zelandiya); maxsus qonunchilikka ega bo'lmagan davlatlar (AQSh, Germaniya) [13].

Birinchi guruh mamlakatlarida qabul qilingan qonunlar uchun xos bo'lgan xususiyat – ularda nafaqat ikki asosiy hamkor (lizingga oluvchi va lizingga beruvchi), balki lizing kompaniyasi va yetkazib beruvchi o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni lizingda yuzaga keladigan uch tomonlama mulkiy munosabatlarining butun majmui tartibga solinadi. Mazkur qonun hujjatlariga muvofiq, uch tomonlama asosli lizing shartnomasida albatta uskunalar kelajakda lizingga berish maqsadida olinayotganligi va undan faqat ko'zlangan maqsadlarda foydalanish mumkinligi ko'rsatilishi shart. Shartnomada sotib olish huquqi to'g'risidagi shartlar va shartnoma muddati tugaganidan so'ng u sotib olinishi ko'zda tutilgan narxlar kelishiladi.

Ikkinchi guruh mamlakatlarida lizing vaqtincha foydalanishga berilayotgan mol-mulk qiymatidan hamda lizing shartnomasi subyektlariga bog'liq ravishda tartibga soli-

nadi. Xususan, Angliyaning "Ijara va oldi-sotdi to'g'risida"gi qonuniga asosan, lizing oluvchi faqat yuridik shaxs hisoblangan va lizing mulkining qiymati 2000 funt sterlingdan ortiq bo'lmagan shartlar belgilangan. Mazkur shartlarga mos tushmagan barcha boshqa holatlar "umumiy huquq" me'yorlari yordamida tartibga solinadi.

Uchinchi guruh mamlakatlari hisoblangan AQSh va Germaniyada yaqin vaqtgacha asosan amortizatsiya va soliq imtiyozlaridan foydalanishni maqsad qilib qo'ygan holda lizingga murojaat qilishgan. Shuning uchun ham lizing soliqqa tortish masalalariga bag'ishlangan qonun hujjatlarida belgilangan.

An'anaviy moliyalash usullaridan yana biri faktoring hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 749-moddasiga asosan, pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasi bo'yicha bir taraf (moliya agenti) ikkinchi tarafga (mijozga) shu mijozning (kreditorning) uchinchi shaxsga – yuridik shaxsga yoki tadbirkorlik subyektiga (qarzdorga) pul talabnomasi hisobidan pul mablag'larini beradi yoki berish majburiyatini oladi, mijoz esa moliya agentiga ushbu pul talabnomasini beradi yoki berish majburiyatini oladi. Ushbu shartnoma pul talabnomasini tavsiflab bergan holda yozma ravishda tuziladi. Kodeksning 750-moddasiga ko'ra, pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalashtirish shartnomalarini moliya agenti sifatida banklar, faktoring tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlari tuzishi mumkin.

Professor Jeyms Fosett huquqshunos olim sifatida faktoring munosabatlarining huquqiy asosini "haq evaziga huquqni o'tkazish" sifatida talqin qiladi [14]. Odatda faktoring operatsiyasi bank kreditlariga nisbatan ancha tez amalga oshiriladi. Hujjatlarni topshirish va naqd pulni olish jarayoni bir necha kun ichida yakunlanishi mumkin. Biroq mijozlar o'z hisob-fakturalarining faktoring kompa-

niyasiga sotilganini bilib qolishsa, bu korxonaning moliyaviy holati barqaror emasligi haqida noto'g'ri tasavvur uyg'otishi mumkin. Bundan tashqari, agar faktoring shartnomasi doirasida debitorlik qarzlarini undirish huquqi faktoring kompaniyasiga o'tsa, tadbirkor mijozlar bilan bo'lgan to'lov munosabatlari ustidan nazoratni yo'qotadi [15].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-109-son Farmoni faktoring xizmatlari bozorini huquqiy tartibga solishga qaratilgan yana bir katta qadam bo'ldi. Xususan, farmon bilan faktoring xizmatlaridan foydalanish uchun zarur hujjatlarni kiritish hamda qarzdorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor yig'ish va ularning real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beruvchi faktoring xizmatlari elektron platformasini joriy etish, faktoring bozori ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida Faktoring milliy assotsiatsiyasini tashkil etish kabi vazifalar belgilandi.

Xalqaro miqyosdagi faktoring operatsiyalarini huquqiy tartibga solish uchun yaratilgan muhim hujjatlardan biri UNIDROIT xalqaro faktoring konvensiyasi (Ottava, 1988) hisoblanadi. 1988-yilda qabul qilingan ushbu konvensiyaga dunyoning bir qator mamlakatlari, jumladan, Fransiya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya, Vengriya va AQSh kabi davlatlar qo'shilgan. Uning asosiy maqsadi turli davlatlarning faktoringga oid qonunchiligidagi farqlarni bartaraf etib, xalqaro savdoni moliyalashtirish uchun yagona va ishonchli huquqiy asos yaratish. Shunga qaramay, konvensiyaga qo'shilgan davlatlar soni nisbatan kam. Buning asosiy sababi uning qoidalari ba'zi davlatlarning milliy huquq tizimlariga to'g'ri kelmasligidir. Dunyodagi barcha yirik savdo sheriklarining konvensiyaga qo'shilmaganligi sababli xalqaro faktoring amaliyotlari ko'pincha ikki tomonlama shartnomalar va milliy qonunchilik asosida olib borilmoqda.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bank krediti, lizing va faktoring kabi an'anaviy moliyalashtirish usullari hozirda ham biznesni rivojlantirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Ularning asosiy afzalligi barqarorlik, aniq qoidalar va keng tarqalganlikdir. Biroq bugun tez o'zgaruvchan, raqamlashgan va innovatsiyalar rivojlangan davrda ularning moslashuvchanlik va tezkorlik borasidagi kamchiliklari ko'zga tashlanmoqda. Bank kreditlarini rasmiylashtirish va lizing shartnomalarini imzolash jarayonlari uzoq vaqtni talab qiladi, garov ta'minoti va rasmiyatchilik jarayonlari tadbirkorga qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Faktoring ham ma'lum bir doirada cheklangan bo'lib, biznesning barcha ehtiyojlarini qondira olmaydi. An'anaviy moliya institutlari yuqori tavakkalchilikka asoslangan loyihalardan qochadi. Global bozorda tadbirkor va investorning huquqlari kafolatini mustahkamlash uchun tadbirkorlik moliyalashtirishni tez va moslashuvchan usullarda olishni talab qiladi.

Aynan shu kamchiliklar sababli noan'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bugun tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, ventur fondlari, farishta investorlar, kraudfanding kabi usullar qonunchiligimizga kirib keldi. Ventur kapital yuqori o'sish salohiyatiga ega, asosan texnologik startaplarga sarmoya kiritadigan xususiy investitsiya fondlaridir. Ular loyihaning dastlabki bosqichida aksiya yoki ulush evaziga pul kiritishadi va ma'lum vaqt o'tgach (odatda 5-10 yil ichida) kompaniyaning aksiyalarini sotish yoki kompaniya IPOga chiqqanida o'z ulushini sotish orqali katta foyda ko'rishni maqsad qiladi [16]. Banklardan farqli o'laroq, ventur investorlar loyihaning moddiy aktivlariga emas, balki intellektual mulki, g'oyasi va jamoasining salohiyatiga baho beradi [17].

Ventur moliyalash tizimi rivojlangan aksariyat rivojlangan davlatlarda sohani to'liq tartibga soluvchi yagona maxsus qonun mavjud emas. Bunda ventur investitsiyalash faoliyati investitsiya yoki innovatsiya faoliya-

tiga oid qonunchilik bazasi asosida tartibga solinadi. Maxsus qonun hujjatlari faqatgina Hindiston va Vengriyada qabul qilingan xolos [18]. AQShda venchur kapital bozorining rivojlanishiga “Securities Act of 1933” (Qimmatli qog’ozlar to’g’risidagi qonun) va “Investment Company Act of 1940” (Investitsiya kompaniyalari to’g’risidagi qonun) kabi hujjatlar katta ta’sir ko’rsatgan bo’lsa, Germaniyada venchur fondlari “Investitsiya fondlari to’g’risida”gi qonun bilan tartibga solingan. Rossiya Federatsiyasida ham innovatsion faoliyat intellektual mulk sohasidagi qonunchilik bilan belgilansa, venchur investitsiya faoliyati umumiy qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi [19].

Venchur moliyalashda fond va startup o’rtasida investitsiya shartnomasi tuziladi. Unda investitsiya miqdori, kompaniyadagi ulush, pul o’tkazish bosqichlari (tranzhlar) va investorning huquqlari aniq ko’rsatiladi. Investitsion kelishuvning birinchi va eng muhim bosqichi termshit (term sheet) deb ataluvchi hujjatni tuzishdan boshlanadi. Unda investitsiya miqdori, kompaniyaning investitsiyadan oldingi bahosi (pre-money valuation), aksiyalarning turi (masalan, imtiyozli aksiyalar), investorning direktorlar kengashidagi o’rni va asosiy huquqlar (masalan, kompaniyani sotishdagi huquqlar) belgilanadi.

Shundan so’ng fondning yuristlari, moliyachilari va boshqa mutaxassislari startup faoliyatini chuqur o’rganishga kirishadi (Due Diligence). Bu bosqichda startupning moliyaviy hisobotlari, huquqiy hujjatlari (masalan, ro’yxatdan o’tish hujjatlari, shartnomalar), intellektual mulkka oid huquqlari (patentlar, savdo belgilari) va asoschilar haqidagi ma’lumotlar batafsil tekshiriladi. Agar tekshiruv natijasida jiddiy muammolar aniqlansa, investor bitimdan voz kechishi yoki shartlarni qayta ko’rib chiqishi mumkin. Due Diligence muvaffaqiyatli yakunlangach, huquqshunolar tomonidan Investitsiya shartnomasi (Share Purchase Agreement) hamda Aksionerlar shartnomasi (Shareholders’ Agreement) kabi hujjatlar imzolanadi [20].

Respublikamizda ham venchur fondlar ekotizimi endigina shakllanib bormoqda. Bizning milliy qonunchiligimizda ham ushbu sohani alohida tartibga soluvchi qonun hujjati qabul qilinmagan. UzVC va Aloqa Ventures kabi milliy venchur fondlari Hukumatning 2020-yilda qabul qilingan qarorlari asosida tashkil etilgan bo’lsa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Startup loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-357-son qarori venchur investitsiyalarini jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish bo’yicha asosiy qadamlardan biri bo’ldi.

Kraudfanding esa – internet platformalar orqali ko’plab kishilardan (jamoatchilikdan) loyiha uchun kichik miqdordagi mablag’larni jalb qilish. Uning asosiy turlari sifatida xayriya kraudfandingi (donation-based crowdfunding), mukofotli kraudfanding (reward-based crowdfunding) hamda investitsiya kraudfandingi (lending-based crowdfunding) kabilarni ko’rsatish mumkin [21]. Kraudfanding moliyalashtirishni erkinlashtirib, oddiy odamlar uchun ham investitsiya imkoniyatlarini ochadi. Bunda an’anaviy moliyalashdagidek qattiq garov talablari va byurokratik jarayonlar yo’q. Asosiysi g’oyaning o’ziga xosligi va uning atrofida jamoatchilikni birlashtira olishdir. Kraudfanding munosabatlari odatda uch asosiy subyekt o’rtasida amalga oshiriladi: loyiha egasi (tadbirkor), investor (yoki donor) va kraudfanding platformasi.

Turli davlatlarda kraudfandingni huquqiy tartibga solish bo’yicha turlicha yondashuvlar mavjud. AQShda kraudfandingni tartibga solish uchun 2012-yilda “Jumpstart Our Business Startups (JOBS) Act” (Biznes startaplarni rivojlantirish to’g’risidagi qonun) qabul qilindi. Ushbu hujjat kraudfandingga maxsus imtiyozlar berdi, bunda kichik kompaniyalar va startaplar o’z aksiyalarini keng doiradagi investorlarga, ya’ni oddiy fuqarolarga ham sotishi mumkin bo’ldi.

Qonunga ko'ra, kompaniyalar AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi (SEC)ga murojaat qilishi va ma'lum talablarni bajarishi kerak. Jumladan, ular o'z faoliyati, moliyaviy ahvoli va investitsiya maqsadlari haqida batafsil ma'lumotni oshkor qilishi shart [22].

Yevropa Ittifoqi miqyosida 2020-yilda "European Crowdfunding Service Providers Regulation (ECSPR)" (Yevropa kraudfanding xizmatlarini ko'rsatuvchilar to'g'risida) nizom qabul qilindi. Ushbu nizom Ittifoq mamlakatlarida faoliyat yurituvchi kraudfanding platformalari uchun yagona qoidalar o'rnatadi. Unga asosan, kraudfanding platformalari faoliyatini boshlash uchun Yevropa Qimmatli qog'ozlar va bozorlar boshqarmasi (ESMA) yoki milliy vakolatli organlardan litsenziya oladi va tegishli reyestruga kiritiladi [23]. Professor Uitni Morrisning ta'kidlashicha, kraudfandingni huquqiy tartibga solishda investorning turi muhim ahamiyatga ega. Masalan, akkreditatsiyadan o'tgan (ya'ni boy va tajribali) investorlar uchun cheklovlarni kamroq qilish mumkin, oddiy fuqarolar uchun esa qat'iyroq himoya mexanizmlari (masalan, investitsiya miqdoriga cheklovlar) joriy etilishi kerak [24].

Mamlakatimizda kraudfanding tizimining huquqiy asoslari hali yaratilmagan. Prezident hujjatlari va Hukumat qarorlarida ushbu tushunchalardan foydalanilgan bo'lsa-da, moliyalashning aniq mexanizmlari, xususan, platformalarni yaratish va ro'yxatdan o'tkazish, investorlarning huquq va majburiyatlari, investitsiya kiritish jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha huquqiy mexanizmlar aniq bir hujjat bilan tartibga solinmagan. Amaliyotda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslarga yordam berish, yoshlar sportini rivojlantirish, maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun mablag' yig'ishga mo'ljallangan bir nechta platformalar yaratilgan. Shuningdek, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi

ayrim fin-tech platformalari ham yordamga muhtoj shaxslarga mablag' to'plash imkoniyatini taklif qilmoqda. Biroq ushbu faoliyatni amalga oshirishning tartibi, taraflarning huquq va majburiyatlari normativ-huquqiy hujjat doirasida belgilanmasligi, kelgusida turli firibgarlik holatlariga va mablag'larning noto'g'ri maqsadlarda ishlatilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Farishta investorlar (Angel investors) o'z shaxsiy mablag'larini yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lgan dastlabki bosqichdagi (startup) kompaniyalarga sarmoya sifatida kiritadigan badavlat jismoniy shaxslardir. Ular odatda o'zlari muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bo'lib, nafaqat pul, balki o'z tajribalari bilan ham boshqalarga yordam berishadi. Farishta investorlar startaplar uchun dastlabki kapitalni (seed funding) taqdim etadi. Bu bosqichda venchur fondlar ham, banklar ham loyihaga qiziqmasligi mumkin, chunki xavf juda yuqori [25].

Venchur fondlar va banklardan farqli ravishda farishta investorlarning qaror qabul qilish jarayoni tez va moslashuvchan hisoblanadi. Ular bir necha oylab davom etadigan byurokratik jarayonlarni chetlab o'tib, tezkor kelishuvlarga erishishlari mumkin. Biroq shuni ham inobatga olish lozimki, farishta investorlarning kiritadigan sarmoyasi venchur fondlarga nisbatan kichikroq bo'ladi. Agar biznes tezkor kengayishni talab qilsa, bir yoki ikki farishta investorning mablag'i yetarli bo'lmasligi mumkin.

Farishta investorlarning faoliyati venchur kapital fondlari kabi maxsus qonunlar bilan tartibga solinmaydi. AQShda asosiy huquqiy tartibga solish "akkreditatsiyadan o'tgan investor" tushunchasi orqali amalga oshiriladi. Ularning maqomi 1933-yilgi "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonun (Securities Act of 1933) bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, agar kompaniya aksiyalarini faqat akkreditatsiyadan o'tgan investorlarga sotsa, u Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasiga to'liq hisobot topshirish majburiyatidan ozod qilinadi.

Bu esa startaplar uchun sarmoya jalb qilish jarayonini tezlashtiradi va soddalashtiradi.

Buyuk Britaniyada farishta investorlarni qo'llab-quvvatlash uchun "Investitsiya solig'i imtiyozi sxemasi" (Seed Enterprise Investment Scheme - SEIS) va "Korxona solig'i imtiyozi sxemasi" (Enterprise Investment Scheme - EIS) kabi maxsus soliq imtiyozlari joriy etilgan. Unga ko'ra, EIS investitsiyasi bo'yicha investorlar 30 %gacha, SEIS investitsiyasi bo'yicha esa 50 %gacha daromad solig'idan ozod qilinadi. Bu investorlar uchun xatarni sezilarli darajada kamaytirib, erta bosqichdagi investitsiyani himoya qiladi.

Professor Maykl Klassens farishta investorlarning huquqiy maqomi ko'p hollarda rasmiy venchur fondlaridan farqli ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, farishta investorlar bilan tuziladigan bitimlar ko'pincha kamroq huquqiy murakkablikka ega, chunki ularning har biri bilan alohida kelishuvga erishiladi [26].

Farishta investor bilan bitimni rasmiylashtirish bosqichlari ham venchur fondlari bilan kelishuvga erishish jarayonlariga o'xshab ketadi. Bunda tadbirkor dastlab o'z biznes-rejasini taqdim etadi. Agar investor loyihaga qiziqsa, tomonlar asosiy shartlarni aks ettiruvchi termshit imzolashadi. Investor tadbirkorning moliyaviy va yuridik holatini tekshiradi (Due diligence). Biroq bu jarayon venchur fondlaridagiga qaraganda soddaroq bo'lishi mumkin. Tekshiruvlar muvaffaqiyatli o'tgach, investitsiya shartnomasi, aksiyalarni sotish shartnomasi va aksionerlar shartnomasi kabi hujjatlar imzolanadi.

Farishta investorlar tushunchasi ham milliy qonunchiligimizga kirib kelishga ulgurmagani. Tadbirkorlarimiz orasida farishta investor sifatida investitsiya kiritish imkoniyatiga ega subyektlar bo'lsa-da, ularning maqomi, investitsiya kiritish tartibi va shartlari belgilanmaganligi ushbu sohaning rivojlanishiga to'siq bo'lib kelmoqda. Ayrim rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik sohasida mezanin moliyalashtirish turi ham mavjud. Mezanin

moliyalashtirish konsepsiyasi eng ilg'or va moslashuvchan yondashuvlardan biri bo'lib, butun dunyodagi rivojlangan moliya bozorlarida kompaniyalar tomonidan keng qo'llanadi.

Mezanin – ham qarz, ham to'g'ridan to'g'ri investitsiya xususiyatlariga ega bo'lgan moliyalashtirish turi. Unga ko'ra, investor odatda kompaniya kapitaliga kirmaydi, balki uni rivojlantirish uchun qarz majburiyatlari orqali mablag' taqdim etadi, shu bilan birga, kelajakda qarz oluvchining aksiyalarini oldindan belgilangan narxda sotib olish huquqiga ega bo'ladi [27].

Mezanin moliyalashtirish (Mezzanine financing) AQShda 1980-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa, Rossiyada birinchi mezanin moliyalashtirish fondi 2009-yilda Volga River Credit Opportunity nomi bilan tashkil etilgan [28]. AQShda mezanin bozori ancha rivojlangan va standartlashtirilgan bo'lib, unda ko'proq xususiy kapital firmalari faoliyat yuritadi. Yevropa bozorida esa mezanin moliyalashtirish ko'proq tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu moliyalashning ijobiy jihatlari shundaki, mezanin kreditorlar bankka qaraganda kamroq garov talab qiladi, chunki ular xavfni kompaniyaning kelajakdagi daromadlari hisobidan qoplashni mo'ljallaydi. Bundan tashqari, kompaniya aksiyalarining katta ulushini sotmasdan, katta miqdordagi kapitalni jalb qilish imkonini beradi [29].

Mezanin moliyalashning yana bir o'ziga xos xususiyati, korxona bankrotlik holatida mezanin qarzni qoplash o'rta bosqichdagi zarurat deb hisoblanadi. Ya'ni majburiyatni ta'minlash birinchi navbatda bank kreditlariga, ikkinchi navbatda mezanin qarzlarga, so'ngra aksiyadorlarning talabiga qaratiladi [30]. Professor Jeyms Fosettning fikricha, bu bitimlardagi asosiy huquqiy muammo "kreditorlar iyerarxiyasi"dir. Mezanin qarz beruvchi odatda yuqoridagi kreditorlarga nisbatan (masalan, banklarga) past darajadagi himoyaga ega. Shu sababli huquqiy hujjatlarda to'lovlarga oid barcha tartib-qoidalar va ehtimoliy bankrotlik holatlaridagi huquqlar aniq ko'rsatilishi kerak.

Mezanin moliyalashtirish dastlab bozor amaliyotida paydo bo'lgan va keyinchalik aksariyat rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya) qonunchiligida o'z aksini topgan. AQShda mezanin bitimlari "Uniform Commercial Code"), ya'ni Birlashgan tijorat kodeksi hamda 1933-yilgi Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida mezanin moliyalashtirishga oid maxsus qonunlar mavjud emas. Uning huquqiy jihatlari asosan fuqarolik kodekslari, tijorat qonunchiligi va investitsiya fondi faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar doirasida tartibga solinadi.

Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksiga asosan, mezanin moliyalashtirishda dastlab qarz shartnomasi, so'ngra opsion shartnoma imzolanadi. Opsion shartnomada investorning subyektga tegishli aksiya yoki ulushlarni olish tartibi belgilanadi [32].

Moliyalashni rasmiylashtirish jarayonlari ham qolgan investitsiya turlarini rasmiylashtirishga o'xshab ketadi. Xususan, mablag'ga ehtiyoji bo'lgan korxona dastlab mezanin fondga ariza beradi. Fond kompaniyaning moliyaviy holati, biznes modeli va o'sish istiqbollari chuqur tahlil qiladi. Fond va kompaniya moliyalashtirish shartlari, jumladan, foiz stavkasi, to'lov muddati va kapitalga kirish shartlari bo'yicha kelishib oladi. Keli-shuvga erishilgandan so'ng fond mablag'larni kompaniyaga o'tkazadi. Kompaniya kelishilgan muddat davomida foiz to'lovlarini amalga oshiradi va belgilangan muddatda asosiy qarzni qaytaradi. Agar kompaniya sotilsa yoki IPOga chiqsa, fond o'z ulushini sotish orqali foyda ko'radi [31].

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, rivojlangan davlatlarda amalda bo'lgan mezanin moliyalashtirish mexanizmlari milliy qonunchiligimizda mavjud bo'lgan boshqa turdagi moliyalashtirish tartiblariga o'xshab ketadi. Huquq va moliya sohasida moliyalash manbalari xilma-xil bo'lsa, tadbirkor o'zining mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib to'g'ri qaror qabul qilishi shuncha oson bo'ladi,

qolaversa, investorlar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishiga ham yordam beradi.

Xulosalar

Tadqiqotda an'anaviy va noan'anaviy moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari va huquqiy tartibga solish mexanizmlari o'zaro taqqoslangan holda o'rganildi. Maqolada ko'rib chiqilgan bank krediti, lizing va faktoring kabi an'anaviy usullar hali ham iqtisodiyotning asosiy ustuni bo'lib qolmoqda. Biroq zamonaviy huquq va iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi, innovatsion startaplarning ko'payishi bilan an'anaviy moliyalashtirishning cheklanganlik jihatlari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Garov talabi, byurokratik jarayonlarning uzoqligi va xavfi yuqori loyihalarga moslashmaslik kabi kamchiliklar noan'anaviy moliyalashtirishning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun zamin yaratmoqda.

Venchur kapital, farishta investorlar, kraudfanding va mezanin moliyalashtirish kabi noan'anaviy usullar an'anaviy tizim to'ldira olmaydigan "bo'shliq"ni to'ldirishi mumkin. Biroq buning uchun yangi huquqiy normalar va qoidalar ishlab chiqish zarurati mavjud. Xususan, noan'anaviy moliyalash usullarining ilmiy-nazariy jihatlari yaratish dolzarb hisoblanadi. Ushbu moliyalashtirish turlarining mazmuni hamda taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarni rasmiylashtirish tartibi fuqarolik qonunchiligida aks ettirilishi lozim. Shuningdek, har bir moliyalash usulining o'ziga xos jihatlari inobatga olgan holda investor hamda tadbirkorning huquq va majburiyatlari, majburiyatlarni ta'minlash usullari, investorlarning huquqiy maqomi va ularga qo'yilgan talablarni o'zida aks ettiruvchi "Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish, har bir moliyalash usulining huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilab qo'yish nafaqat faoliyatini boshlayotgan tadbirkorlarning imkoniyatlarini kengaytiradi, balki respublikaga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar oqimining ortib borishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Morris H.A. The Law of Corporate Finance. Sweet & Maxwell, 2012, pp. 55–62.
2. Smith J. Financial Regulation and the Rule of Law. Cambridge University Press, 2015, pp. 80–91.
3. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper & Row, 1985, pp. 185–195.
4. Hasanova G. Kichik biznesning moliyaviy resurs manbalari [Sources of financial resources for small businesses]. *Science and Education Scientific Journal*, 2023, vol. 4, iss 2, pp. 1560–1567.
5. Markaziy bankning statistik byulleteni [Statistical Bulletin of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan]. 2025, June. Available at: <https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/2664799/>
6. Brigham E.F., Houston J.F. Fundamentals of Financial Management. USA, Thomson South-Western, 2016, pp. 514–520.
7. Marlese L. Pros and cons of a business bank loan. Available at: <https://www.bankrate.com/loans/small-business/business-loan-pros-cons/>
8. Stiglitz J.E. Symposium on Bubbles. *The Journal of Economic Perspectives*, 1990, vol. 4, no. 2, pp. 13–24.
9. Jonathan M. L. The Scope of Coverage of the Truth in Lending Act. Cambridge University Press, 2018. DOI: 10.1111/j.1747-4469.1976.tb00674.x.
10. Berger A.N., Udell G.F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle. *Journal of Banking & Finance*, 1998, vol. 22, iss. 6, pp. 613–673. Available at: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=13799/
11. Brigham E.F. Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. Cengage Learning, 2016, pp. 980–995.
12. Clare F. Advantages and Disadvantages of Leasing Equipment in the UK. *Legal Vision*, 2024. Available at: <https://legalvision.co.uk/commercial-lease-property/leasing-equipment/>
13. Hazratqulov O.T. Milliy lizing qonunchiligini takomillashtirish muammolari [Problems of improving national leasing legislation]. *Uzbek Law Review*, 2012, no. 2, p. 6.
14. Fawcett J. Corporate Finance and Legal Risk. Sweet & Maxwell, 2010.
15. International Factoring – Statistics. Available at: https://fci.nl/en/international-factoring-statistics?language_content_entity=en/
16. Lerner J., Hardyman F., Leamon A. Venture Capital and Private Equity: A Casebook. Harvard Business School, 2012, pp. 370–385.
17. Financing SMEs and Entrepreneurs 2018: An OECD Scoreboard. Paris, OECD Publ., 2018, p. 238. Available at: https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2018_fin_sme_ent-2018-en.html/
18. Gusov E.S. Osobennosti pravovogo regulirovaniya venchurnogo investirovaniya v Rossiyskoy Federatsii [Peculiarities of legal regulation of venture investment in the Russian Federation]. Moscow, Main Directorate of the Ministry of Internal Affairs of Russia Federation, 2012, pp. 89–93.
19. Khan A.A., Orudzhov T.F. Problemy pravovogo regulirovaniya venchurnykh investitsiy [Problems of legal regulation of venture investments]. *Law and Rights*, 2020, vol. 8, p. 176.
20. Miller J. The Law and Economics of Venture Capital. Cambridge University Press, 2018, p. 9.
21. The 2nd Global Alternative Finance Benchmarking Report. Available at: https://kpmg.com/xx/en/what-we-do/industries/global-economic-outlook.html?cid=ggl-cpc_ggl_all_xx_2025_global-economic-outlook_sectors&utm_medium=cpc&utm_source=ggl&utm_campaign=2025-global-economic-outlook-sectors&utm_term/
22. Jumpstart Our Business Startups (JOBS) Act. 2012, April 5. Available at: <https://www.sec.gov/rules-regulations/jumpstart-our-business-startups-jobs-act/>
23. European crowdfunding service providers for business. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/EN/legal-content/summary/european-crowdfunding-service-providers-for-business.html/>

24. Morris W. The Regulation of Crowdfunding: A Comparative Perspective. *Journal of Financial Law*, 2019, p. 126.
25. GEM Global Report. Available at: <https://www.gemconsortium.org/report/>
26. Klausner M. The Contractual and Legal Theory of Corporate Governance. *Stanford Law Review*, 1995, vol. 47, no. 1, pp. 163–228.
27. Pirkova G.Kh. Mezoninnoe finansirovanie kak istochnik finansirovaniya na sovremennom etape razvitiya predprinimatelskoy deyatel'nosti v Rossiyskoy Federatsii [Mezzanine financing as a source of financing at the current stage of development of entrepreneurial activity in the Russian Federation]. *Russian Entrepreneurship*, 2017, vol. 18, no. 7, pp. 1151–1158.
28. Mokina L., Strelnikov E. Mezoninnoe finansirovanie kak alternativniy istochnik korporativnogo finansirovaniya: rossiyskiy opyt [Mezzanine Financing as an Alternative Source of Corporate Financing: Russian Experience]. *Journal of Economic Research*, 2017, vol. 3, no. 12, pp. 6–7.
29. Strelnikov Ye.V. K voprosu o modelirovanii finansovogo rynka [On the issue of financial market modeling]. *Manager*, 2017, vol. 1(65), pp. 54–59.
30. Chernikov V.E. Mezaninnoe finansirovanie kak instrument privlecheniya sredstv v proekty gosudarstvenno-chastnogo partnerstva [Mezzanine financing as a tool for investing in public-private partnership projects]. *Education and Law*, 2024, no. 8, p. 95.
31. Sazonov S.P. Alternative sources of business development: mezzanine financing. *Scientific Papers of the University of Pardubice. Series D, Faculty of Economics & Administration*, 2016, vol. 23, no. 37.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 3-son

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3